

FUQAROLIK HUQUQINING MANBALARI

Zaxidova Shahnoza Maksuddjanovna

*Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq
va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti, 1-kurs talabasi*

KIRISH

Har qanday inson hayoti davomida, har kuni huquqiy munosabatlarga kirishadi, xususan, transport vositalaridan foydalanish va ularni boshqarish, do'kondan mahsulot sotib olish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, ijara asosida uy-joy olish yoki uni sotib olish, nikoh shartnomalarini tuzish, mulkiy munosabatlar va hokazolar. Yuqorida keltirilganlarning barchasi fuqarolik huquqi doirasida tartibga solinadi.

Ammo, fuqarolik huquqi o'zi nima? Fuqarolik huquqi manbalari tushunchasi nima? Fuqarolik huquqi manbalari chet davlatlarda qanday? Fuqarolik qonunlarining vaqt, hudud hamda shaxslar bo'yicha amalda bo'lishi nima? Fuqarolik huquqida qonun analogiyasi va huquq analogiyasi qanday bo'ladi? Fuqarolik-huquqiy normalarini sharhlash va ularni qanday turlari mavjud?

Ushbu maqolada yuqoridagi barcha savollarga olimlarning fikrlari, qiyosiy tahlillar, jadvallar orqali javob beramiz.

ASOSIY QISM

Taniqli huquqshunos olim, mohir pedagog, yuridik fanlar doktori, professor Ikrom Bekenovich Zokirovning fikricha, fuqarolik huquqi bu – huquqning alohida tarmog'i bo'lib, yuridik jihatdan teng bo'lgan subyektlar o'rtasidagi mulkiy, shaxsiy nomulkiy hamda tashkiliy-huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda mustahkamlaydigan huquqiy normalar yig'indisi hisoblanadi.

Ya'ni fuqarolik huquqi jinoyat, ma'muriy, moliya, iqtisodiy huquqlardan alohida tarmoq sifatida belgilanadi. Misol uchun, jinoyat huquqida – jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan davlat nomidan jazo tayinlasa, fuqarolik huquqida esa, ikki shaxs o'rtasida tuzilgan shartnoma buzilsa, tomonlar muomala tengligi asosida sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'ladi.

Fuqarolik huquqida ishtirok etuvchi subyektlar ya'ni jismoniy shaxslar yoki yuridik shaxslar (korxonalar, kompaniyalar) bir-biriga bo'ysunmaydi, chunki O'zbekiston Respublikasi hamda Fuqarolik Kodeksiga binoan ularning huquqlari tengligi mustahkamlab qo'yilgan.

Masalan, fuqaro va yirik korxonada avtomobil xarid qilish bo'yicha shartnoma tuzilsa, ammo korxonada fuqaroga uning huquqlarini buzib, sifatsiz avtomobilni sotib, fuqaro ularning huquqiy jihatdan tengligi asosida sudga shikoyat qilishi mumkin. Mulkiy munosabatlar – shaxslar o'rtasida mulk, mol-mulk, pul va boshqa boyliklar bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni anglatadi.

Misol qiladigan bo'lsak, O'zbekiston fuqarosi ko'chmas mulk sotib olish, ijara shartnomasini tuzish, qarz berish kabi ishlarni amalga oshirsa, fuqarolik huquqining mulkiy munosabatiga kirishgan hisoblanadi.

Shaxsiy nomulkiy munosabatlar – mulk bilan bog'liq bo'lmagan, ammo huquqiy ahamiyatga molik bo'lgan – qadr-qimmat, ism, shaxsiy hayot daxlsizligi kabi munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Masalan, internetda birovning ruxsatisiz uning rasmini tarqatish yoki biror insonga tuhmat qilib uning obro'siga putur yetkazish, shaxsiy nomulkiy munosabatning buzilishidir. Tashkiliy huquqiy munosabatlar deganda esa – yuridik shaxslar tuzilishi, ularning bir-biriga nisbatan huquqiy maqomi, vakolatlarini tushunish mumkin. Masalan, MCHJ tashkil etish, uning ustavi, ishtirokchilarining huquqlari, boshqaruv organlari vakolatlari fuqarolik huquqining tashkiliy-huquqiy munosabataridir.

Ammo, ba'zi huquqshunos olimlarning fikricha, mamlakatimiz hamda xorijiy yuridik adabiyorlarda “xususiy huquq” iborasi ham qo'llaniladi. Xususiy huquq atamasi tor ma'noda “fuqarolik huquqi” ni anglatadi. Keng ma'noda esa xususiy huquq tarkibiga “fuqarolik huquqi”, “oila huquqi”, “mehnat huquqi”, “tadbirkorlik huquqi” sohalari ham kiradi⁴⁰.

Fuqarolik huquqi manbalari tushunchasiga ta'rif berishdan avval, huquq manbalari nima ekanini bilib olishimiz kerak. Huquq manbalari deganda umumiy ma'noda huquqning ifoda etilish shakli tushuniladi⁴¹. Moddiy ma'noda esa jamiyatdagi mulkchilik shakllari, moddiy shart-sharoitlar, jamiyat a'zolarining ehtiyojlari va manfaatlarini; mafkuraviy ma'noda – turli huquqiy mafkura va ta'limotlar, huquqiy ongini; maxsus yuridik ma'noda esa – huquqni shakllarini tushunish mumkin.

Har bir sohada o'zining manbalari bo'ladi. Konstitutsiya esa barcha huquq sohasining asosiy manbasi hisoblanadi.

Fuqarolik huquqining manbalari deganda, fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy xarakterdagi normativ-huquqiy hujjatlar yoxud nohuquqiy xarakterdagi ijtimoiy normalar tizimi tushuniladi⁴².

Huquq nazariyasida huquq manbalariga nisbatan bir necha shartlar qo'yiladi. Aynan shu shartlar manbaning aynan huquqqa tegishlilikini hamda uning boshqa soha manbalaridan ajratib turishga yordam beradi. Ushbu shartlar sarasiga:

- 1) Huquq manbasi normativ xarakterga ega bo'lishi kerak;
- 2) Huquq manbasi o'zining nomlanishi va ta'sir kuchi doirasida tegishli vakolatli davlat organi tomonidan qabul qilingan yoki chiqarilgan bo'lishi kerak;
- 3) Huquq manbalari har doim tegishli tartib va qoida asosida qabul qilinishi lozim;
- 4) Huquq manbasi tegishli ravishda ro'yxatga olinishi va muayyan shartlar asosida e'lon qilinishi lozim.

⁴⁰ Oyqulov, O., Imonov, N., Baratov, M. va boshqalar, 2021. Fuqarolik huquqi (yuridik texnikumlar uchun darslik). Toshkent: TDYU. 14-bet. Available at: <https://drive.google.com/file/d/14wohceoim0x42ykZ2qhcGSEynXi7SP3/view> [Accessed 17 Apr. 2025].


⁴¹ Baratov. M.X., Yo'ldoshev. J.I., Topildiyev. B.R., va boshqalar. 2011. Fuqarolik huquqining umumiy qismidan o'quv uslubiy kompleks. Toshkent: TDYU. 276-bet. Available at: https://drive.google.com/file/d/1tz--ANga4VbRhXvYN47yc9_k30Uky-Uc/view [Accessed 17 Apr. 2025].

⁴² Kuldashv. N.A., Nurullayev. U.K. 2023. Fuqarolik va oila huquqi: Darslik. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi. 11-bet. Available at: <https://yurkitob.uz/uploads/pdf/adv/79.pdf> [Accessed 17 Apr. 2025].

Shuningdek, manbalar huquqiy tartibga solish usuliga qarab imperativ normalar va dispozitiv normalar kabi guruhlarga bo'linadi.

Imperativ normalar deb, ma'lum bir huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning erklari bilan o'zgartirilishi mumkin bo'lmagan, qat'iy xarakterda bo'lgan, qat'iy buyruq beradigan normalarga aytiladi⁴³. Bu normalar davlat manfaatlari, jamoat tartibi yoki fuqarolarning fundamental huquqlarini himoya qilish uchun joriy etiladi. Fuqarolik Kodeksining 23-moddasining uchinchi qismiga ko'ra "Fuqarolarning huquq layoqatidan yoki muomala layoqatidan to'la yoki qisman muomala layoqatini cheklashga qaratilgan boshqa bitimlar o'z-o'zidan haqiqiy emasdir", - deb belgilab qo'yilgani ham imperativ normaga yaqqol misol bo'la oladi. Shuningdek, imperativ normalar asosida jamiyatda asosiy qadriyatlar va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash mumkin. Bunga yana bir hayotiy misol keltirsak, O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq, erkaklar hamda ayollar uchun nikoh yoshi o'n sakkiz yosh deb belgilab qo'yilgan. Hamda ushbu normani ta'minlash davlat tomonidan qat'iy belgilab qo'yiladi. O'n sakkiz yoshdan avval turmush qurish qonuniy tarzda emansipatsiyaga ega bo'lgandan keyin ruxsat berilishi mumkin.

Dispozitiv normalar deb, taraflarning o'z ixtiyorlari bilan to'ldirilishi mumkin bo'lgan va shartnomalarda huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining o'zaro kelishuvi bo'yicha tartibga solinishi mumkinligini ko'rsatadigan normalarga aytiladi⁴⁴. Agar tomonlar bu haqda hech narsa demasa, unda qonunda ko'rsatilgan umumiy qoidalar amal qiladi. Dispozitiv normalarga, Fuqarolik Kodeksining 223-moddasining birinchi qismida ulushli mulkdagi mol-mulk ishtirokchilar o'rtasida ularning kelishuviga muvofiq taqsimlanishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Dispozitiv normalar huquqiy munosabatlarga moslashuvchanlik, erkinlik hamda ijodkorlikni olib kiradi. Dispozitiv normalarga hayotiy misol keltirsak, tomonlar ijara muddati, to'lov miqdori, ta'mirlash majburiyati kabi masalalarni o'zaro kelishuv asosida belgilashadi. Agar bu shartlar ko'rsatilmagan bo'lsa, qonundagi umumiy qoidalar (dispozitiv normalar) asosida hal qilinadi.



⁴³ Topildiyev. V.R. 2022. Fuqarolik huquqi. Darslik. Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish. 72-bet

⁴⁴ Topildiyev. V.R. 2022. Fuqarolik huquqi. Darslik. Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish. 72-bet

Fuqarolik huquqining manbalarini quyidagi klaster orqali batafsil yoritamiz:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolik huquqi manbasining asosiy rahbariy qonunchiligi hisoblanadi. Konstitutsiyaning 19, 31, 41, 47, 53, 65, 66, 67-moddalari bevosita fuqarolik-huquqiy munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik qonun-hujjatlariga Fuqarolik Kodeksi va "Mulkchilik to'g'risida"gi, "Ijara to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar va fond birjalari to'g'risida"gi, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi, "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi, "Garov to'g'risida"gi, "Lizing to'g'risida"gi, "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi, "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi va boshqa qonunlarni kiritsak bo'ladi. Shuningdek, Fuqarolik Kodeksining 1-qism, 1-bo'lim, 1-kichik bo'limning 1-bobidagi 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7-moddalarida ham belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar tizimida yetakchi o'rin egallaydi. Fuqarolik kodeksining 1-qismi 1995-yil 21-dekabrda, 2-qismi esa 1996-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan va har ikkala qismi ham 1997-yil 1-martdan boshlab amalga kiritilgan. Fuqarolik Kodeksi 6 bo'lim, 71 bob, 1199 moddadan iborat.

Qonunosti hujjatlarga to'xtalsak, O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 91-modda 1-qismida, "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi", – degan norma mustahkamlangan. Bunga ko'ra, Oliy Majlis palatalari tomonidan qabul qilingan hamda fuqarolik huquqiy xarakteriga ega bo'lgan qonun hujjatlari ham fuqarolik huquqi manbalarini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 110-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Prezident farmonlari va qarorlari turmushda, hayotda, xalq xo'jaligida, iqtisodiyotda, ishlab chiqarishda kechiktirib bo'lmaydigan munosabatlarni tartibga solish va mustahkamlash ehtiyojidan kelib chiqishi ham fuqarolik huquqi manbasi sirasiga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati ya'ni Vazirlar Mahkamasi Konstitutsiyaning 116-moddasida belgilangan, konstitutsiyaviy normalar doirasida va qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Ya'ni fuqarolik huquqiga oid Vazirlar Mahkamasi qarorlar chiqarsa yoki Oliy Majlisning qarorlari hamda Prezidentning farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlash maqsadida farmoyishlar chiqarsa, u ham fuqarolik huquqining manbasi hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 126-moddasida: "Xalq deputatlari Kengashi va hokim o'z vakolatlari doirasida tegishli hududdagi barcha tashkilotlar, shuningdek mansabdor

shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi", – deb belgilab qo'yilgan.

Tadbirkorlik faoliyatining biron-bir sohasida vujudga kelgan va keng qo'llaniladigan, qonunchilikda nazarda tutilmagan xulq-atvor qoidasi, biron-bir hujjatda yozilganligi yoki yozilmaganligidan qat'i nazar, ish muomalasi odati deb hisoblanadi.

Mahalliy urf-odat va an'analar ham ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda alohida o'rin egallaydi. Masalan, chorva mollari sotilganda arqonni qaytarib berish, bitim tuzilish faktini belgilash bo'yicha "bor-baraka qilinishi" kabilar.

Fuqarolik qonunchiligida tegishli normalar bo'lmagan taqdirda, bu kabi munosabatlarni tartibga solishda mahalliy odat va an'analar qo'llaniladi.

Lokal normativ hujjatlar ko'proq tijorat yoki notijorat yuridik shaxslar tomonidan qabul qilinadi va o'zaro ichki munosabatlari, uning a'zolari, ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, "Korporativ boshqaruv Kodeksi", "Aksiyadorlik jamiyati umumiy yig'ilishini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom, "Mas'uliyati cheklangan jamiyati kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizom kabilar.

Chet el tajribasida, ayniqsa rivojlangan fuqarolik yurisdiksiyalarida, masalan, Fransiya, Germaniya, Italiya, Rossiya, Yaponiya kabi mamlakatlarda fuqarolik huquqining manbalari turlicha belgilanadi.

Xususan, Fransiyada fuqarolik huquqining asosiy manbasi 1804-yilda qabul qilingan Code Civil ya'ni Fransiya Fuqarolik Kodeksidir. Ushbu Kodeksni Napoleon Kodeksi deb ham atashadi hamda Napoleon Kodeksi butun Yevropada fuqarolik huquqining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Fuqarolik kodeksi Rim huquqidan olingan institutsional tizimga asoslanadi va kirish sarlavhasi va uchta kitobdan iborat: I kitob - "Shaxslar to'g'risida", II kitob - "Mulk va mulkni turli xil o'zgartirishlar to'g'risida" va III kitob - "Meros olishning turli usullari to'g'risida", shu jumladan 2281 ta modda⁴⁵. Shuni ta'kidlash kerakki, Fransiya Code Civil me'yorlarining tubdan yangilanishiga qaramay, u sezilarli darajada eskirgan bo'lsa-da, o'z faoliyatini davom ettirmoqda. Bu holatning misolini huquqshunos olimlardan biri A. I. Lubenskiyning bayonotida topish mumkin, u fransuz kodifikatsiyasini «qonun hujjatlarini qisman qayta ko'rib chiqish bilan birga birlashtirish» deb tavsiflaydi⁴⁶.

Germaniyadagi 1900-yilda kuchga kirgan Fuqarolik Kodeksi Bürgerliches Gesetzbuch deb ataladi. U juda tizimli va normalar batafsil yoritilgan hujjat bo'lib, har bir huquqiy holatni chuqur tahlil etadi. Ushbu Kodeks ko'pincha nazariy huquqshunoslik asosida ishlab chiqilgan hamda zamonaviy Germaniya fuqarolik huquqining asosiy tayanchi hisoblanadi. 1896 yilgi Kodeks keyingi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan u 5 ta kitobga birlashtirilgan 2385 ta moddani o'z ichiga oladi: 1-kitob - "Umumiy qism", 2-kitob - majburiyatlar huquqi, 3-kitob mulk huquqi kitobi, 4-5-kitob – qonunlardan iborat. 1900 yil 1 yanvarda kuchga kirgan asosiy normativ-huquqiy hujjat Rim va Germaniya

⁴⁵ Makarushkova A.A., Solovieva I.V. 2019. Sravnitel'no-pravovoy analiz sovremennykh istochnikov grazhdanskogo prava Rossii, Frantsii i Germanii. [online] CyberLeninka. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/sravnitelno-pravovoy-analiz-sovremennykh-istochnikov-grazhdanskogo-prava-rossii-frantsii-i-germanii> [Accessed 18 Apr. 2025].

⁴⁶ Lubenskiy A.I. Frantsiyada qonunchilikni tizimlashtirish. Xorijiy davlatlarning qonun hujjatlari haqida ma'lumot. M.: VNIISZ, 1970. Nashr. 50. P. 6.

huquqining eng yaxshi an'alarini o'zida mujassam etgan bo'lib, rus qonun chiqaruvchisi va sivilistik ta'limotining e'tiboriga loyiqdir⁴⁷.

Rossiya Federatsiyasida Fuqarolik huquqining zamonaviy manbalari (shakllari) tizimi, birinchi navbatda, federal darajadagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan quyidagi ierarxik ketma-ketlikda namoyon bo'ladi: Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi, Rossiya Federatsiyasining federal konstitutsiyaviy qonunlari, Rossiya Federatsiyasining federal qonunlari (Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksi Rossiya Federatsiyasi Prezidentining "teng huquqbuzarliklari va normativlari orasida birinchi o'rinda turadi"), Rossiya Federatsiyasi hukumati, shuningdek federal darajadagi ijro etuvchi organlarning boshqa hujjatlari. Fuqarolik huquqining zamonaviy manbalarining ushbu ierarxiyasi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalarini va Rossiya Federatsiyasining xalqaro shartnomalarini o'z ichiga olmaydi⁴⁸.

Fuqarolik qonunlarining amalda bo'lishi vaqt, hudud hamda shaxslar bo'yicha kabi mezonlarga tavsiflanadi. Bularni jadval orqali, misollar keltirib tavsiflaymiz:

T/r	Mezon	Tavsifi	Misol
1.	Vaqt bo'yicha amal qilishi	Qonunning kuchga kirish sanasidan boshlab, u bilan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlarga nisbatan qo'llaniladi. Qonunning orqaga kuchi (retroaktiv kuch) bo'lishi maxsus hollarda, faqat inson uchun foydali bo'lsa mumkin.	2021-yilda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi Qonuniga binoan, normativ-huquqiy hujjatlar, agar hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, ular rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.
2.	Hudud bo'yicha amal qilishi	Qonun faqat u qabul qilgan davlat yoki muayyan hududda amal qiladi. Boshqa hududlarda u kuchga ega emas.	O'zbekiston Fuqarolik Kodeksi faqat O'zbekiston hududida amal qiladi. Rossiyada yashovchi fuqaro agar munosabat O'zbekiston bilan bog'liq bo'lmasa unga bo'ysunmaydi.
3.	Shaxslar bo'yicha amal qilishi	Qonun kimlarga nisbatan amal qilishini bildiradi. Bu faqat shaxslar, jumladan, fuqarolar (O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar) va yuridik shaxslar (mahalliy, xorijiy, qo'shma yuridik shaxslar)ga nisbatan bir xilda qo'llanilishidir.	O'zbekiston fuqarolari bilan bir qatorda, xorijiy investorlar yoki xorijiy yuridik shaxslar ham fuqarolik qonunlariga muayyan holatlarda bo'ysunadi. Masalan, ular O'zbekistonda shartnoma tuzsa.

Fuqarolik qonunlari ijtimoiy hayot munosabatlarida kun sayin vujudga kelib borishi sababli, ularni o'z ichiga olgan qoidalarni bera olmaydi. Fuqarolik huquqining normalari bilan nazarda tutilmagan yangi munosabatlar paydo bo'lishidagi bo'shliqlarini to'ldirish,

⁴⁷ Makarushkova A.A., Solovieva I.V. 2019. Sravnitel'no-pravovoy analiz sovremennykh istochnikov grazhdanskogo prava Rossii, Frantsii i Germanii. [online] CyberLeninka. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/sravnitelno-pravovoy-analiz-sovremennykh-istochnikov-grazhdanskogo-prava-rossii-frantsii-i-germanii> [Accessed 18 Apr. 2025].

⁴⁸ Didenko Asya A.A. 2007. Sovremennaya sistema istochnikov rossiyskogo grazhdanskogo prava. [online] CyberLeninka. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennaya-sistema-istochnikov-rossiyskogo-grazhdanskogo-prava> [Accessed 19 Apr. 2025].

ya'ni to'g'ridan-to'g'ri tartibga solinmagan holatlarda adolatli va mantiqiy yechim topish uchun qonun analogiyasi hamda huquq analagiyasi muhim hisoblanadi.

Qonun analogiyasi bu – huquqiy munosabatni to'g'ridan-to'g'ri tartibga soluvchi norma mavjud bo'lmaganda, shu kabi o'xshash munosabatlar uchun belgilangan normani qo'llashdir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 5-moddasiga binoan, munosabatlar qonunchilik yoki taraflarning kelishuvi bilan to'g'ridan-to'g'ri tartibga solinmagan hollarda fuqarolik qonunchiligining o'xshash munosabatlarni tartibga soluvchi normasi qo'llaniladi (qonun o'xshashligi).

Agar qonun analogiyasini qo'llashning ham imkoni bo'lmasa, ya'ni umuman o'xshash huquqiy norma mavjud bo'lmasa, unda sud yoki boshqa vakolatli organ fuqarolik huquqining umumiy prinsiplariga tayanib qaror chiqaradi. Bu holat huquq analogiyasi deyiladi. Yuqoridagi 5-moddaning davomida shunday deyilgan: “Ko'rsatib o'tilgan hollarda qonun o'xshashligidan foydalanish mumkin bo'lmasa, taraflarning huquq va burchlari fuqarolik qonunchiligining umumiy negizlari va mazmuniga (huquq o'xshashligiga) hamda halollik, oqillik va adolat talablariga amal qilgan holda belgilanadi.”

Huquq normasi ma'nosini belgilash va tushuntirishga qonunni sharhlash deyiladi.

Fuqarolik huquqi normalarini sharhlash sharhlovchi subyektlar, sharhlash usullari va hajmiga qarab farq qiladi.

Normalarni sharhlovchi subyektlar huquq normalariga rasmiy va norasmiy sharh beruvchilarga bo'linadi.

Rasmiy sharh vakolatli bo'lgan hokimiyat organlari tomonidan beriladi hamda ma'lum darajada majburiy kuchga ega hisoblanadi. Bunday sharh O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan beriladi. Ular Respublika doirasida barcha fuqarolar va tashkilotlar uchun majburiydir. Bundan tashqari mahalliy Kengash tomonidan va sud tomonidan berilgan sharh ham rasmiy sharh hisoblanadi.

Norasmiy sharh – majburiy kuchga ega bo'lmagan sharhga aytiladi. Ular ilmiy asarlarda, darsliklarda, ma'ruzalarda berilishi mumkin. Norasmiy sharh, imloviy (grammatik), mantiqiy, tizimli hamda tarixiy sharhlashga bo'linadi.

Imloviy sharhda imlo, grammatik qoidalaridan foydalanib, qonunda ishlatilgan ayrim so'zlar, jumlar, ifodalarning ma'nosini aniqlash yo'li bilan huquqiy normalarning mazmuni belgilanadi.

Mantiqiy sharhlashda qonunda ishlarilgan ifodalar, tushunchalar bir-biri bilan ichki, uzviy, mantiqiy bog'langanligini aniqlab, huquqiy normaning mazmuni belgilanadi.

Tizimli sharhlashda huquq normasining mazmuni uning huquq tizimida egallagan o'rnini belgilash, uni boshqa huquqiy normalar bilan taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi.

Tarixiy sharhlashda huquq normasi qanday tarixiy vaziyatlarda qabul qilinganligini belgilash yo'li bilan aniqlanadi.

XULOSA

Fuqarolik huquqi manbalari shaxslar jumladan, fuqarolar (O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar) va yuridik

shaxslar (mahalliy, xorijiy, qo'shma yuridik shaxslar) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi muhim normativ asosdir. Ular jamiyat rivojlanishi bilan birga o'zgarib, yangilanib boradi. Fuqarolik huquqi manbalarini bilish va tushunish har bir fuqaroga o'z huquqlarini himoya qilish va majburiyatlarini bajarish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Asosiy adabiyotlar:

1. Kuldashov. N.A., Nurullayev. U.K. 2023. Fuqarolik va oila huquqi: Darslik. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi. 11-bet. Available at: <https://yurkitob.uz/uploads/pdf/adv/79.pdf> [Accessed 17 Apr. 2025].

2. Topildiyev. V.R. 2022. Fuqarolik huquqi. Darslik. Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish. 72-bet

3. Oyqulov, O., Imonov, N., Baratov, M. va boshqalar, 2021. Fuqarolik huquqi (yuridik texnikumlar uchun darslik). Toshkent: TDYU. 14-bet. Available at: <https://drive.google.com/file/d/14wohceoimOx42ykZ2qqhcGSEynXi7SP3/view> [Accessed 17 Apr. 2025].

4. Mualliflar jamoasi. 2017. Fuqarolik huquqi. Darslik. I qism. Toshkent. TDYU. 22-44-betlar. Available at: https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/07/30/NamDU-ARM-12257-Fuqarolik_huquqi.pdf [Accessed 17 Apr. 2025].

5. Ruziyev. R.Dj., Topildiyev. V.R. 2011. Fuqarolik huquqi. O'quv qo'llanma. Umumiy qism. Toshkent. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 45-61-betlar. Available at: <http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/86/Fuqarolik%20huquqi.pdf> [Accessed 17 Apr. 2025].

6. Baratov. M.X., Yo'ldoshev. J.I., Topildiyev. B.R., va boshqalar. 2011. Fuqarolik huquqining umumiy qismidan o'quv uslubiy kompleks. Toshkent: TDYU. 276-bet. Available at: https://drive.google.com/file/d/1tz--ANga4VbRhXvYN47yc9_k30Uky-Uc/view [Accessed 17 Apr. 2025].

7. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. 2010. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga Sharh. Toshkent. Vektor-press. 816 bet. Available at: <https://drive.google.com/file/d/12JppyTNNXtdjLJx4HJ6-xmWuKgZukrRd/view> [Accessed 17 Apr. 2025]

8. Zokirov. I.B. 2006. Fuqarolik huquqi. Darslik. Toshkent. TDYU. 355 bet. Available at: <https://drive.google.com/file/d/1FJ8CQDwP8On7INBewq56E7vH5OKk3LP2/view> [Accessed 17 Apr. 2025]

9. Zokirov. I.B. 1996. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqi. Darslik. 1-qism. Toshkent. Adolat. 297 bet. Available at: <https://drive.google.com/file/d/1FJ8CQDwP8On7INBewq56E7vH5OKk3LP2/view> [Accessed 17 Apr. 2025]

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Larina T.V. 2020. Deystvie istochnikov grazhdanskogo prava vo vremeni i po krugu lits. [online] CyberLeninka. Available at:

<https://cyberleninka.ru/article/n/deystvie-istochnikov-grazhdanskogo-prava-vo-vremeni-i-po-krugu-lits> [Accessed 18 Apr. 2025].

2. Makarushkova A.A., Solovieva I.V. 2019. Sravnitel'no-pravovoy analiz sovremennykh istochnikov grazhdanskogo prava Rossii, Frantsii i Germanii. [online] CyberLeninka. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/sravnitelno-pravovoy-analiz-sovremennykh-istochnikov-grazhdanskogo-prava-rossii-frantsii-i-germanii> [Accessed 18 Apr. 2025].

3. Didenko Asya A.A. 2007. Sovremennaya sistema istochnikov rossiyskogo grazhdanskogo prava. [online] CyberLeninka. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennaya-sistema-istochnikov-rossiyskogo-grazhdanskogo-prava> [Accessed 19 Apr. 2025].

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Available at: <https://lex.uz/docs/-6445145>

2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. Available at: <https://www.lex.uz/uz/docs/-111189>

Elektron ta'lim resurslari:

1. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/huquqshunoslik/o-zbekiston-respublikasi-fuqarolik-huquqining-manbalari>

2. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/07/30/NamDU-ARM-12257-Fuqarolik_huquqi.pdf

3. <http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/86/Fuqarolik%20huquqi.pdf>

4. <https://yurkitob.uz/uploads/pdf/adv/79.pdf>

5. <https://pdfbox.uz/doc/huquq/35331-fuqarolik-huquqining-manbalari>

6. <https://pdfbox.uz/doc/huquq/36237-ozbekiston-respublikasi-fuqarolik-huquqining-manbalari>

7. <https://pdfbox.uz/doc/huquq/35328-fuqarolik-huquqi-tushunchasi-tamoyillari-tizimi-fuqarolik-huquqining-manbalari-fuqarolik-huquqiy-munosabat>